

IJTIMOIIY LINGVISTIK VARIATSIYANING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI TIZIMI HAQIDA

Nasirov Davronbek Palvannazirovich
Alfraganus universiteti filologiya fakulteti

Annotatsiya. Maqolada lisoniy o'zgaruvchanlikni sociolingvistik nuqtai-nazardan leksikografik talqin qilishning yagona qoida-me'yorlari yo'g'ligi haqida gap boradi. Jumladan, leksikografik talqin berishda lisoniy variantlarning stilistik va semantik farqlanishini ko'rsatish zarurati yuzaga keladi. Sociolingvistik variativlikni leksikografik talqin qilish uchun muhim ahamiyatga kasbiy (professional) til va sosiolekt tushunchalarni farqlash zarurdir. Kasbiy tilning tabiyatini aniqlashda ikkita tamoyil belgilanadi: birinchisi adabiy tilning subtili sifatida qaraladigan kasbiy tilni va sosiolektni alohida ajratib ko'rsatadi, ularni bir biridan farqlaydi, ikkinchisi esa kasbiy tilni o'zini alohida o'rganmasdan, uni ma'lum mezonlar, jumladan, kasbiy tillar bo'yicha chegaralangan sosiolektlar doirasida ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: *sociolingvistik variativlik, lug'at, leksikografik tavsif, leksikografik tavsif tizimi, sosiolekt, kasbiy til.*

Sociolingvistik variativlikning leksikografik talqini u yoki bu sosiolektning til xususiyatlarini o'rganish, til tashuvchining ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansubligini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Sosiolektlar leksikasi turli sohalaridagi mutaxassislar tomonidan qayd etiladi:

- adabiy me'yorning lingvistik variantlari bilan bir qatorda mintaqaviy tarixiy va dialekt leksikografiyasi doirasida;
- kasbiy sohalar lug'atlari doirasida;
- ekspressiv nutqning leksik tarkibi doirasida.

Ko'rsatilgan yo'nalishlarda tadqiq ob'yekti sifatida ko'p hollarda kasbiy jargonlar o'rganilib, lug'atlarda "maxsus" belgisi bilan qayd etiladi. 2000-yillardan boshlab, kasbiy til boshqa faoliyat sohalariga

o'tishi masalalariga alohida e'tibor qaratildi va bu, o'z navbatida, kasbiy leksikaning maxsus lug'atlari paydo bo'lishiga olib keldi. Lug'atlarning ko'pchiligida ma'lumotni to'plash va uni tizimga solish metodologiyasi etarlicha ishlab chiqilmagan. Buni biz lisoniy o'zgaruvchanlikni sotsiolingvistik nuqtayi-nazardan leksikografik talqin qilishning yagona qoida-me'yorlari yo'g'ligida ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, bu borada kuzatiladigan quyidagi kamchiliklarni ko'rsatish lozimdir:

- lug'atlarda keraksiz ma'lumotlar ko'p uchrashi, lug'at maqolalari bir-birini takrorlashi;

- muayyan sotsiolektlar yetarlicha chegaralanmaganligi, farqlanmasligi;

- material to'plashda sotsiolingvistik manbalarni belgilashning aniq mezonlari yo'g'ligi;

- sotsiolekt va uning ba'zi emotiv-ekspressiv ma'no komponentlari doirasidagi lisoniy variantlar semantikasini ta'riflashda xatoliklarga yo'l qo'yilganligi kuzatilishi.

Bir qator tadqiqotchilar lug'at maqolasida ma'lum bir lisoniy variantning ma'nosini va uni qo'llash xususiyatlarini aniqlash imkonini beradigan kontekstlarning muhimligini ta'kidlaydilar.(1) Shu munosabat bilan, leksikografik talqin berishda lisoniy variantlarning stilistik va semantik farqlanishini ko'rsatish zarurati yuzaga keladi.

Lisoniy variantlarning stilistik va semantik farqlanishini ko'rsatishda quyidagi markerlar ahamiyatlilik kasb etadi:

- funksional-temporal;
- funksional-xududiy;
- funksionalno-stilistik markerlar.

Funksional-temporal markerlar lisoniy variantlarning qo'llanilgan davriga ishora qiladi, aynan qachon, qaysi davrda ishlatilganligini bildiradi.(2) Funksional-xududiy markerlar lisoniy variantlar qo'llaniladigan xududdan dalolat beradi. Funksional-stilistik markerlar lisoniy variantlarning ma'lum janr yoki uslub nuqtai-nazardan qo'llanish xususiyatlarini aks ettiradi.

V.V. Korovushkin tomonidan taklif etilgan sotsiolingvistik variativlikni leksikografik talqin qilish tizimi lisoniy variantni quyidagilarga asoslangan holda ta'riflashni nazarda tutadi:(3)

1) ijtimoiy-kommunikativ tizim (muayyan til guruhi tomonidan qo'llaniladigan va foydalanish doirasi, ijtimoiy vaziyatlar, rol munosabatlariga qarab ajralib turadigan barcha lisoniy shakllarining yig'indisi);

2) sotsiolingvistik me'yor (indivud tomonidan u yoki bu til vositalari tanlanishiga asos bo'lgan qoidalar yig'indisi);

3) tilning ekzistensial shakli, ya'ni ijtimoiy-kasbiy faoliyat sohalari doirasida shaxslarning muloqotini ta'minlaydigan lisoniy shakllar;

4) subtil va sosiolekt. Subtil deganda V.V. Korovushkin indivudlarning kasbiy tilini nazarda tutadi. Kasbiy til maxsus termin va ijtimoiy tushunchalardan foydalanadigan, avtonom, barqaror xarakterga ega bo'lgan, bir biriga o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi adabiy til me'yorlari (sotsiolingvistik me'yorlarning birinchi darajasi) hamda jargon (sotsiolingvistik me'yorlarning ikkinchi darajasi) dan iborat, muayyan sotsiumning nutqiy muloqotini ta'minlovchi adabiy tilning fonetik, leksik, grammatik vositalarini o'z ichiga qamrab olgan sotsiolingvistik me'yorlar tizimi sifatida izohlanadi;

5) lisoniy, leksik substandart yoki lisoniy tizim, ahloqiy, estetik me'yorlar bilan chegaralanmagan quyi qatlam tili.

Ko'rib turganimizdek, V.V. Korovushkinning ushbu konsepsiyasi sotsiolingvistik variativlikni leksikografik talqin qilish uchun muhim ahamiyatga ega ba'zi tushunchalarni farqlashga qaratilgan.

Birinchi navbatda, kasbiy (professional) til va sosiolektni farqlash zarur. XX asrning ikkinchi yarmida kasbiy til (subtil) maxsus terminologik tizim deb hisoblangan, undan kasbiy tushunchalarni nomlash ehtiyoji bo'lgan ma'lum bir kasb vakillari foydalanishgan.(4) Shu bilan birga, ba'zi tadqiqotlarda kasbiy til adabiy tilning bir qismi – subtil sifatida qaralib, unda professional jargon kiritilmagan, lekin professional til va jargon birikmasidan tashkil topgan alohida sosiolekt sifatida ajratilgan.

Boshqa tadqiqotlarda kasbiy til nutqning ijtimoiy varianti yoki o'ziga xos fonetik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lmagan, lekin kasbiy yo'naltirilgan leksik tizimi mavjud bo'lgan nutq uslubi sifatida qaraladi.(5) Ba'zi tadqiqotchilar esa kasbiy tilni jargon bilan bir xil deb e'tirof etishadilar, ularni sinonim sifatida ishlatadilar va ularni sosiolekt doirasida ko'rib chiqadilar. (6)

Demak, kasbiy tilning tabiyatini aniqlashda ikkita tamoyil belgilanadi: birinchisi adabiy tilning subtili sifatida qaraladigan kasbiy tilni va sosiolektni alohida ajratib ko'rsatadi, ularni bir biridan farqlaydi, ikkinchisi esa kasbiy tilni o'zini alohida o'rganmasdan, uni ma'lum mezonlar, jumladan, kasbiy tillar bo'yicha chegaralangan sosiolektlar doirasida ko'rib chiqadi. Bunday holda, terminologik va jargon leksikasi alohida ajratiladi, terminlarning so'zlashuv uslubining tarkibiy bir qismi bo'lgan jargon analoglari tadqiq qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. – М.: Просвещение, 1987. – 160 с.

2. Коровушкин В.П. Контрастивная социодialeктология как автономная лингвистическая дисциплина // Язык в современных общественных структурах (социальные варианты языка – IV): Матер. Междунар. науч. конф. – Н. Новгород: Изд-во НГЛУ им. Добролюбова, 2005. – С. 7-13.

3. Лукьянова Н.А. Экспрессивная лексика разговорного употребления: проблемы семантики. – Новосибирск: Наука, Сиб. отд-ние, 1986. – С. 183-200.

4. Серебренников Б.А. Территориальная и социальная дифференциация языка // Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. – М., 1970. – С. 451-501.

5. Туманян Э.Г. Язык как система социолингвистических систем. – М.: Наука, 1985. – 247 с.

6. Химик В.В. Жаргонное слово, жаргоны и жаргонология как наука // Verbum: язык, текст, словарь, посвящ. юбилею Л.Г. Бабенко. – Екатеринбург: Изд-во УрГУ, 2006. – С. 11-19.

7. Ismailov, G. M. (2016). Phraseological picture of the world in the Turkic languages. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(43), 5-7.

8. Ismailov G.M. (2025). Germaniyada nemis tilining maqomi va til vaziyati / Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. №4. – B. 1362-1373.

9. Jurayeva, N., Küçük, S., Soyer, A., & n Kaba, H. (2025). Xorazm Shevalari O ‘g ‘uz Lahjasi Leksikasida Murakkab Tarkibli Dialektal Birliklarning O ‘rni. *BABUR Research* 2025/2. – S. 176-186.

10. Жупаева, С. Х. (2024). Interaction of youth slang and cultural values of the people. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 119-126.

11. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.